O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

Buxoro davlat universiteti
rektori ________ O.X Xamidov

2025 yil "___" ___________

Ro'yxatga olindi: № *BD- 60220500 -1.13*
2025 yil « __ » avgust

# SIYOSAT FALSAFASI

## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 220 000 - Gumanitar fanlar(tillardan tashqari) |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60220500 - Falsafa |

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda top 300 talik ro'yxatga kiruvchi **George Washington University, Washington D.C. AQSH (32** o'rin) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

***https://bulletin.gwu.edu/courses/phil/phil.pdf***

BUXORO-2025

| Fan/modul kodi | | O'quv yili | Semestr | ECTS – Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|---|
| SF 1306 | | 2025-2026 | 3 | 4 | |
| Fan/modul turi | | Ta'lim tili | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy | | O'zbek | | 4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Falsafaga kirish | | 60 | 60 | 120 |

2.

I. **Fanning mazmuni.**

XXI asr dunyoda yangi ijtimoiy munosabatlar va yangi dunyoqarashning shakllanishi bilan boshlandi. Hozirgi kunda qaysi jamiyatda yashashidan qat'iy nazar odamlarning qadriyatli mo'ljallari muayyan darajada o'zgardi. Ushbu hol texnogen sivilizatsiya faoliyatning mazmuniga va ilmiy kashfiyotlarning gumanistik yo'nalishiga e'tiborni kuchaytirish lozimligini taqozo qiladi. Bu esa, bugungi kunda yoshlarning jamiyatda munosib o'rin egallashiga, shaxs sifatida kamolotga erishishida dunyoni va o'zini anglashi uchun falsafiy tafakkurni qurollantirishni talab qiladi. Zero, falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat xalqining ijtimoiy ongini o'zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va vazifalarining o'zgarishi hamdir. Shu bois, "Falsafaga kirish" fani falsafani o'rganishga ilk bor kirishayotgan talabalar uchun uning muammolari haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishida dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda dunyodagi ijtimoiy jarayonlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usi va to'g'ri fikrlash mahoratini shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - nazariy bilimlar asosida ijtimoiy hodisa va jarayonlarga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi maqsadini aniqlashga imkon beradi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-FALSAFA DUNYONI ANGLASH USULI**

**1-mavzu. Siyosiy falsafaning predmeti, maqsad va vazifalari.**

Siyosat deb ataluvchi ijtimoiy fenomen yoki hodisaga insoniyat o'z taraqqiyotining ibtidosidayoq duch kelishi. O'tgan uzoq tarixiy davr mobaynida bir zamonlar urug' va qabilalararo tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar to'xtovsiz rivojlanib, bu murakkab dunyoda insonlarni birga yashashdek buyuk bir san'atni egallashga o'rgatishi.

**2 - mavzu. Siyosiy falsafa taraqqiyotining asosiy davrlari.**



Siyosat tom ma'noda odamlarning ijtimoiy hayotni tashkil etishga oid ehtiyojlarini aks ettirishi. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining in'ikosi, hosilasi haqida. Asosiy vazifasi ijtimoiy hayotning turli sohalarini yo'naltirishi.

**3 - mavzu. Siyosiy falsafaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari.**

Siyosat insonlarning o'ziga xos faoliyati sifatida Qadim zamonlardayoq ilmiy tadqiqotlarning obyektiga aylanishi. Siyosatga oid bilimlar siyosiy tafakkurning ilk ko'rinisglari sifatida. Qadimgi Gretsiya va Rimda polis-davlat va jamiyat qurilishining o'ziga xos shakllari.

**4-mavzu. "Qonun" siyosiy-falsafiy kategoriya sifatida.**

Jamiyat hayotida biror-bir siyosiy o'zgarish, siyosiy voqea-hodisalar siyosatning ta'siridan chetda qolmasligi. Siyosatshunoslik fan sifatida jamiyat hayotining turli sohalaridagi o'zgarishlarda siyosatning o'rni va rolini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashi.

**5-mavzu. Siyosiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari.**

Siyosatshunoslikni ijtimoiy-tarixiy muhit taqozo etishi, siyosiy qarashlar va g'oyalarsiz tasavvur etishni, siyosiy fikr tarixan huquqiy fikr bilan bog'liqligi va ular o'rtasida uyg'unlik mavjudligi. Siyosiy falsafa o'zak g'oyasi-siyosiy hokimiyat, jamiyat boshqaruvi va idora etish g'oyasidir.

**6-mavzu. Siyosiy ongning namoyon bo'lish shakllari.**

Siyosiy ong-bu bilimlar, kayfiyat va tuyg'ular tizimi bo'lib, ular orqali sub'ektlar-shaxslar, guruhlar, millatlar va boshqalar tomonidan siyosiy siyosiy sohani anglashi. Butun siyosiy tizimning faoliyati va rivojlanishining zarur elementidir.

**7-mavzu. Jamiyatning falsafiy tahlili.**

Jamiyat haqidagi falsafiy ta'limotlar tarixi. Jamiyat paydo bo'lishining ilmiy asoslari. Jamiyat taraqqiyotida barqarorlik va beqarorlik dialektikasi. Jamiyatning iqtisodiy asoslari. Ijtimoiy ishlab chiqarish va moddiy ishlab chiqarish tushunchasi. Ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar. Mulk va mulkchilik. Jamiyatning ma'naviy asoslari. Informatsiya va kommunikatsiya. Individual ijtimoiy ong. Ijtimoiy ongning strukturasi. Ijtimoiy psixologiya.

**8-mavzu. Jamiyatning siyosiy strukturasi.**

Jamiyat hayotiga sivilizatsiya ta'siri. Sivilizatsiya tushunchasi. Sivilizatsiyaga turli yondashuvlar tasnifi. Sivilizatsiyaning tiplari: Sharq va G'arb sivilizatsiyasi, liberal va an'anaviy sivilizatsiya. Madaniyat, uning tuzilishi va funksiyalari. Madaniyatlardagi umumiylik. Madaniyatning sub'ekti. Madaniy faoliyat. Madaniy kommunikatsiyalarning ijtimoiy hayotdagi roli.

**9-mavzu. Jamiyat rivojlanishi qonunlarining tasnifi**

Jamiyatning ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy jamoa va guruhlar. Etnik guruhlar, tabaqalar va sinflar. Ijtimoiy va siyosiy institutlar. Hududiy guruhlar. Ijtimoiy makon. Jamiyatning siyosiy asoslari. Jamiyatning siyosiy tizimi. Parlament respublikasi. Prezident respublikasi. Federatsiya. Siyosiy tizimda partiyalar, tashkilotlar va jamoa tashkilotlarining o'rni. Siyosat va siyosiy ong. Fuqarolik

jamiyati, siyosiy erkinlik, demokratiya, fuqarolik uyushmalari, ijtimoiy tartib, fuqarolik jamiyatida barqarorlik.

**10-mavzu. Global adolat**[1]

Global siyosatga oid axloqiy savollar. Global boylik taqsimoti, xalqaro savdo, immigratsiya siyosati, davlat aralashuvi, transmilliy faollik, mustamlakachilik va boshqa ierarxik hokimiyat tuzilmalarini o'z ichiga oladi. **(PHIL 3111. Global Justice. 3 Credits. Ethical questions about global politics. Issues include global wealth distribution, international trade, immigration policy, state intervention, transnational activism, and colonial and other hierarchical power structures. Recommended background: Prior completion of PHIL 1051 or at least one other philosophy course)**

**11-mavzu. Inson tushunchasi mohiyati va mazmuni.**

Inson olamdagi boshqa biologik mavjudotlardan ajralib turadigan muhim xususiyatlarga ya'ni aql, ma'naviyat, madaniyat, axloq, tafakkur, til va boshqa jihatlarga ega bo'lgan ijtimoiy vujud, odam zotini naglatadigan tushunchalarini, inson nasliga xos bo'lgan barcha genetik xususiyatlari haqida.

**12-mavzu. Falsafa va zo'ravonlikdan xoli bo'lish**[2]

Ma'noli, adolatli va tinch yashash uchun shaxsiy va ijtimoy kurashda zo'ravonlik va zo'ravonlikdan xoli bo'lish; Tolstoy, Gandi, King va boshqalar tafakkurida pasifizm va zo'ravonliksiz qarshilikning falsafiy asoslari; urush, terrorizm, genotsid va etnik mojarolar, shuningdek, inson huquqlari, gumanitar intervensiya va adolatli urush nazariyasiga oid falsafiy tadqiqotlar. **( PHIL 2133. Philosophy and Nonviolence. 3 Credits. Violence and nonviolence in the personal and social struggle for meaningful, just, and peaceful existence; philosophical foundations of pacifism and nonviolent resistance in the thought of Tolstoy, Gandhi, King, and others; philosophical inquiry into war, terrorism, genocide, and ethnic conflict, as well as human rights, humanitarian intervention, and just war theory)**

**13-mavzu. Inson fan va texnika olamida**

Fan va texnikaning o'zaro bog'liqligi, yagonaligi, ilgarilab boruvchi taraqqiyoti, ijtimoiy taraqqiyot asosi, fan rivoji bilan texnika taraqqiyoti o'rtasidagi yaqinlashuv XVII-XVIII asrlarda manufaktura ishlab chiqishi bilan bog'liq holda sodir bo'lishi. Ilmiy va texnikaviy taraqqiyot inson faoliyatining mustaqil yo'nalishi sifatida yuksala boshlagani haqida.

**14-mavzu. O'zbekistonning ilmiy salohiyati**

Inson salohiyati, O'zbekiston raqamli rivojlanishining asosiy omili ekanligi. Raqamlashtirish sohasida ulkan strategiya va dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan inson resurslarinining mavjudligi va sifatini o'rganishga qaratilganligi. Respublikada mutaxassislarini tayyorlash va ishga joylashtirish tizimining xususiyatlari va dinamikasi, hozirgi holati haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish bir xil darajada muhimliligi.

[1] Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda top 300 talik ro'yxatiga kiruvchi George Washington University Washington D.C. AQSH(32-o'rin) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi. *https://bulletin..gwu.edu/courses/phil/phil.pdf*

[2] Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda top 300 talik ro'yxatiga kiruvchi George Washington University, Washington D.C AQSH(32-o'rin) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi. *https://bulletin.gwu.edu/course/phil/phil.pdf*



**15-mavzu.Huquq falsafasi**

Huquq va yurisprudensiyaning fundamental tushunchalarini tizimli tekshirish; huquq va axloq munosabatlariga alohida e'tibor qaratiladi. **(PHIL 3142. Philosophy of Law. 3 Credits. Systematic examination of fundamental concepts of law and jurisprudence; special emphasis on the relationship between law and morality)**

**III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Siyosiy falsafaning predmeti, maqsad va vazifalari
2. Siyosiy falsafa taraqqiyotining asosiy davrlari
3. Siyosiy falsafaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari
4. "Qonun" siyosiy-falsafiy kategoriya sifatida
5. Siyosiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari
6. Siyosiy ongning namoyon bo'lish shakllari
7. Jamiyatning falsafiy tahlili
8. Jamiyatning siyosiy strukturasi
9. Jamiyat rivojlanishi qonunlarining tasnifi
10. Jamiyat qonunlarining siyosiy shart sharoit bilan o'zaro bog'liqligi va namoyon bo'lish shakllari
11. Inson tushunchasi mohiyati va mazmuni
12. Shaxsning mohiyati va mazmuni
13. Inson fan va texnika olamida
14. O'zbekistonning ilmiy salohiyati
15. Inson va jamiyat tarqqiyotining umumbashariy muammolari

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Siyosiy falsafaga fanining predmeti va maqsadi hamda boshqa fanlar bilan aloqadorligi. (referat, taqdimot)
2. Siyosiy falsafa taraqqiyotining asosiy davrlari (referat, taqdimot)
3. Siyosiy falsafaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari (referat, taqdimot)
4. Siyosiy ongning namoyon bo'lish shakllari (referat, taqdimot)
5. Jamiyatning falsafiy tahlili (referat, taqdimot)
6. Jamiyatning ijtimoiy strukturasi (referat, taqdimot)
7. Jamiyat rivojlanishi qonunlarining tasnifi (referat, taqdimot)

| | |
|---|---|
| | 8. Jamiyat qonunlarining siyosiy shart sharoit bilan o'zaro bog'liqligi va namoyon bo'lish shakllari (referat, taqdimot)<br>9. Qonunlarda siyosiy ehtiyojlar va manfaatlarning ifodalanishi (referat, taqdimot)<br>10. Inson tushunchasi, mohiyati va mazmuni (referat, taqdimot)<br>11. Shaxsning mohiyati va mazmuni (referat, taqdimot)<br>12. Inson fan va texnika olamida (referat, taqdimot)<br>13. O'zbekistonning ilmiy salohiyati (referat, taqdimot)<br>14. Sivilizatsiya tushunchasi mohiyati va mazmuni (referat, taqdimot)<br>15. Jahon sivilizatsiya va O'zbekiston istiqbolining falsafiy masalalari (referat, taqdimot)<br>16. Siyosiy bilish. Jamiyatni ilmiy bilish va boshqarish (referat, taqdimot)<br>17. Insoniyat tarixining ilk bosqichida tabiatga munosabat (referat, taqdimot)<br>18. O'rta asrlarda va Yangi davrda tabiat muammosi (referat, taqdimot)<br>19. XX asrda ekologik tanglik (referat, taqdimot)<br>20. Jamiyatning sohalari (referat, taqdimot)<br>21. Jamiyat tushunchasi va uning tuzilishi (referat, taqdimot)<br>22. Jamiyatning iqtisodiy sohalari (referat, taqdimot)<br>23. Jamiyatning siyosiy hayoti (referat, taqdimot)<br>24. Jamiyatning ma'naviy hayoti (referat, taqdimot)<br>25. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi (referat, taqdimot)<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• falsafiy bilimning mohiyati, uning ma'naviy hayotning boshqa shakllari – din, fan, san'at, axloq bilan mutanosibligi, falsafaning dunyoqarash funksiyasi va metodologik asoslari, dunyoning ilmiy va falsafiy manzarasi haqidagi fundamental tushunchalar, ratsionallik va irratsionallik ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;***<br>• falsafa va amaliyot birligi, ilmiy bilim xususiyatlari, fan taraqqiyotining asosiy bosqichlarini, tarix falsafasi va falsafa tarixini, faoliyat tushunchasi va uning hayot mezoni, global jarayonlar dialektikasini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***<br>• bilimlarni mustaqil boyitib borishi, mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashning shakllanishida ijtimoiy-madaniy muhitning ta'sirini hisobga olishi, falsafani o'rganishda asosiy manbalar, adabiyotlardan foydalanishi, falsafiy masalalarni qo'yish va yechishda fikrlash mahorati, insoniyat ma'naviy taraqqiyotiga falsafiy madaniyatning ijobiy ta'sirini anglashi, ijtimoiy hodisa va jarayonlarni yoritishda falsafiy tahlilni qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar; |



| | |
|---|---|
| | • interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual mustaqil ta'lim ishlari, loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Falsafa asoslari.(Q.Nazarov tahriri ostida.) -T.:Sharq, 2022.-249 b.<br>2. Bilish falsafasi.–T.:Universitet, 2023. 412-b.<br>3. ijtimoiy falsafa.-T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati nashriyoti. 2022-388 b.<br>4. Imom Termiziy. «Sahihi Termiziy». Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1993 yil.<br>5. Abu Nasr Farobiy. «Fozil odamlar shahri». Toshkent, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993 yil.<br>**6**. The Political Philosophy of George Washington (The Political Philosophy of the American Founders) https://www.amazon.com/Jeffry-H-Morrison/e/B001HP5FQG/ref=dp_byline_cont_book1.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Abu Rayxon Beruniy. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar». Toshkent, 1998 yil.<br>2. «Temur tuzuklari». Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1996 yil.<br>1. Mirzo Ulug'bek. «To'rt ulus tarixi». Toshkent, 1996.<br>2. Alisher Navoiy. «Mahbub ul-qulub». Toshkent, 1987 yil.<br>3. Zahriddin Muhammad Bobur. «Boburnoma». Toshkent, «Cho'lpon» nashriyoti, 1989 yil.<br>4. Falsafa qomusiy lug'ati. –T.: «Sharq». 2004 y.<br>**Axborot manbalari**<br>1. www.akadmvd.uz<br>2. www.gov.uz<br>3. www.mtdp.uz<br>4. **https://bulletin.gwu.edu/courses/phil/phil.pdf** |
| 7. | Fan dasturi Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan.BuxDU Kengashining 2025-yil "__ " ____________" dagi "___ " -son bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |

| | |
|---|---|
| | |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sullar:**<br>**Sultonova Sh.S.** BuxDU, "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**Zoirov E.X.** BuxMTI"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori (turdosh OTM).<br>**Sharipov A.Z.** BuxPI "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor (turdosh OTM) |